

Muzaffar Naimov

*Folklor
qo'shiqlari*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Muzaffar Naimov

*Folklor
qo'shiqlari*

*(Oliygochlар uchun «An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi»
fanidan o'quv qo'llanma)*

Тошкент

«Turon zamin ziyo»

2017

UO'K 398.8(575.151)

KBK 82(50')

N-19

Naimov, Muzaffar.

Folklor qo'shiqlari [Matn] / M.Naimov. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. 80 b.

ISBN 978-9943-4921-9-6

Folklor qo'shiqlari o'quv qo'llanmasi asosan Surxon vohasida faoliyat yuritayotgan "Boysun", "Chorqars", "Bulbuligo'yo", "Zevar", "Jayxun" kabi folklor – etnografik ansambllari repertuarlaridan namunalar hamda 1997-2010-yillarda o'tkazilgan folklor ekspeditsiyalar natijasida yozib olingen mavsumiy, to'y marosim, mehnat, yilnomasi – taqvim va turli mavzudagi xalq qo'shiqlaridan tashkil topgan.

Ushbu o'quv qo'llanma oliygochlarning musiqa ta'limi yo'nalishi talabalariga "An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi" faniga mo'ljallangan bo'lib, o'rta maktab, musiqa va san'at maktablari, san'at kollejlari, folklor jamoalari, havaskorlik ashula va raqs ansambllari rahbarlari ham foydalanishlari nazarda tutilgan.

UO'K 398.8(575.151)

KBK 82(50')

Mas'ul muharrir:

Rustambek Abdullayev,

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor.

Taqribchilar:

O'rozali Toshmatov,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "An'anaviy qo'shiqchilik" kafedrasi mudiri, professor.

Soyibjon Begmatov,

O'zbekiston davlat konservatoriysi "Musiqi sharqshunoslik" kafedrasi mudiri, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

*Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-4921-9-6

© M.Naimov,

© "Turon zamin ziyo",
Toshkent, 2017 y.

SO‘Z BOSHI

Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy maqsadi ta’limni tubdan isloh qilish, jahon andozalari talablarini bajara oladigan yuksak ma’naviyatli, yuqori malakali kadrlar tayyorlashdir.

Tezkor o‘tayotgan hozirgi davrda ta’lim tizimida ham darslik, o‘quv, uslubiy qo‘llanmalar yaratish ishlariga hukumatimiz tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda. Ko‘plab nashr etilgan musiqa, san’at sohasidagi kitoblardan talaba yoshlarimiz unumli foydalanib kelishmoqda.

Oliy ta’lim standartida va “An’naviy va xalq qo‘shiqchiligi” fan dasturida an’naviy qo‘shiqchilikning to‘rt guruhi: mavsum-marosim, urf-odat qo‘shiqlari, mehnat qo‘shiqlari, lirik epik qo‘shiqlarini chuqur o‘rganish hamda amaliyotda keng qo‘llash talablari nazarda tutilgan. Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda “An’naviy va xalq qo‘shiqchiligi” fanidan o‘quv qo‘llanma tayyorlandi.

Qo‘llanmaning boshqa nashr ettirilgan qo‘llanmalardan farqli jihat shundaki, bunda asosan Surxon vohasiga xos xalq qo‘shiqlari o‘rin olganligidir. Surxon vohasi o‘zining folklor qo‘shiqlari bilan faqat O‘zbekistonda emas, xatto chet ellarda xam keng quloch yozmoqda. Ayniqsa, «O‘zbekiston va Qaroqalpog‘iston xalq artisti» Mahmud Namozov, «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist» Hosila Raximova, “Boysun”, “Chorqars”, “Zevar”, “Bulbuligo‘yo” folklor-etnografik jamoalarining ijodiy faoliyatları bunga yaqqol misol bo‘ladi.

O‘quv qo‘llanma to‘y qo‘shiqlari, mavsum, mavsumiy mehnat, yilnomal-taqvim va turli mavzudagi qo‘shiqlardan iborat bo‘lib, qo‘shiqlar haqidagi ma’lumotlar ham kiritilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliygochlarning musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘rta maktab, musiqa va san’at maktablari, san’at kollejlari, folklor jamoalari, xavaskorlik ashula va raqs ansamblari rahbarlari ham foydalanishlari mumkin.

TO‘Y MAROSIM QO‘SHIQLARI

Laylalo

Surxondaryoning tog‘li O‘shor qishlog‘i hududiga xos qo‘shiq bo‘lib, to‘ylarda faqat ayollar tomonidan ijro etiladi. Qo‘shiqda qizlarning yorlariga nisbatan sevgi muhabbatlari hazil so‘zlar orqali aks ettiriladi. Qo‘shiq doira jo‘rligida ijro etilganda ufori usullar silsilasida qizaloqdan kampirgacha davrani to‘ldirib raqsga tushishadi. Qo‘shiq sho‘x, raqsbop ohangda ijro etiladi.

Paxtaror gir(Paxtani ol)

Denov tumani tog‘li O‘shor qishlog‘ida azaldan o‘zbeku-tojiq bir oiladek yashab kelishadi. Ular bir-birlarining tillariga tushunib, ko‘plari ikki tilda ham gaplashaveradilar. To‘y marosimlarida ham o‘zbekcha, ham tojikcha qo‘shiqlar ijro etiladi. Nikoh to‘yida kuyov kelinni uyga kirgizganidan keyin ayollarimiz tomonidan “Paxtaror gir” qo‘shig‘i ijro etiladi. Bu qo‘shiq viloyatning shu hududiga xos bo‘lib, boshqa joylarda qayd etilmagan. Ikki ayol qo‘llariga oppoq paxta olishib, shu qo‘shiqni kuylashadi. Qo‘shiq o‘lchovi 6/8 bo‘lib yengil, hazil, humor tariqasida kuylanadi.

Dashnabod naqsh aytishuv qo‘shig‘i

Sunnat to‘yi kuni tush paytida elga osh tarqatilgach, “naqsh” bazmi boshlanadi. Bazmda erkaklar ikki tomonga bo‘linib, bir-birlariga qarata bayt aytishni boshlashadi. Baytni bir kishi aytib qolganlari bas, bas, bas, bas so‘zlariga jo‘r bo‘lishadi. Ikkinchini tomon ham shu tariqa davom ettirib davrani qizdirishadi. Aytishuv sifatida ijro etilgan ushbu qo‘shiq faqat vohaning Dashnobod qishlog‘iga xosdir. Aytishuvning har bir bandi yangi so‘zlar bilan badihago‘ylik tarzida boyitilib boradi. Har bir band o‘z mazmuniga egadir. Aytildigan so‘z bo‘g‘inlariga ma’lum tovush to‘g‘ri keladi, shu tufayli rechitativ ijro uslubi hosil bo‘ladi. Ijrochilar ovozi baland tovushlarda jaranglaydi. Ritmik uslubi ravon, ijro harakat jarayonida namoyon bo‘ladi. Qo‘shiq o‘lchovi 6/8 bo‘lib, tez tempda cholg‘u jo‘rligisiz ijro etiladi.

Boysun yor-yori

Bu qo‘shiqning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ko‘p yillar farzandlarini voyaga yetkazib kelin-kuyov libosida ko‘rish, visol oqshomlarida aytildigan “Yor-yor” qo‘shiqlarini har qaysi ota-onasi intiqlik, sog‘inch va umid bilan kutadi. Qizni ota-onasi uyidan uzatayotganda va kuyovning xonadoniga kirib borayotgan paytda “Yor-yor” qo‘shiqlarini aytilishi beixtiyor ota-onalar ko‘zida sevinch yoshlarini paydo qiladi. Bu qo‘shiqda ota-onaning ta’rifi, orzu-umidi, kelin va kuyovning baxti, saodati, muhabbat, vafosi, serfarzand bo‘lishlari ishtiyoq bilan kuylanadi.

Hay yor-yor

Surxondaryo viloyatining tog‘li Boysun tumanida keng tarqalib kuylanib kelinayotgan bu qo‘shiq, raqsbop xarakterda ijro etiladi. Qo‘shiqning sho‘x doira usuli qo‘shiq xarakteriga yanada ko‘tarinki kayfiyat namoyon etadi.

Yor-yor

Yigitlar tomonidan aytildigani bu qo'shiq sho'x, quvnoq, raqsbob xarakterda bo'lib, doiraning ufor usuli tinglovchilarni sehirlab qo'ygandek ko'tarinkilik kayfiyatini bagishlaydi.

Aylansin yor, aylansin

To'y, bayram sayllarida juda keng tarqalgan bu qo'shiq ohangi "Yallama yorim" o'zbek xalq qo'shig'iga o'xshash jihatlari bo'lsada, ammo qo'shiqning rivojlanish qismi va naqorati boshqa ohangda kuylanadi. Qo'shiq sho'x, raqsbob xarakterda ijro etiladi.

Hay yorey, hay do'st

Bir kishi baytlarni aytib, qolganlar "Hay yorey, hay do'st" so'zlarga jo'r bo'lishadi. Qo'shiqning o'lchovi 6/8 bo'lib, o'rtacha tezlikda cholg'u jo'rligisiz ijro etiladi. Shuning uchun kuylovchilardan katta mahorat talab qilinadi. "Hay yor" qo'shig'i kuyi o'zgacha tuzilgan bo'lib, uning harakat doirasi yuqorida bosqichma-bosqich ("si¹-mi¹") kvinta oralig'ida yo'naltirilgan.

NAVRO'Z QO'SHIQLARI

Jarchilar qo'shig'i

Jarchilar qo'shig'i ijro davomida aniq diapazon balandligiga ega bo'lmasada, lekin ijrochilar tamonidan katta mahorat talab etadi. Bu qo'shiq jarchilar qo'shig'i deyilishiga sabab shundan iboratki, "jar" baland va kuchli ovozda (aytish ma'nosini bildiradi) Jarchilar chaqirig'i Surxondaryoda marosim to'ylarida, "Navro'z" sayl chaqiruvlarida ham aytildi.

Navro'z qo'shig'i

Navro'z ("Boychechak", "Mubarakbod", "Navro'z qutlug'i" uning turli nomlanishi) bevosita "Navro'z" bayramiga bag'ishlangan tabrik qutlov qo'shiqlaridan biri. Yakka guruh tarzida aytilgan qo'shiq jozibador ohangda ijro etilgan. Bayramona kayfiyat qo'shiqning so'z va kuy mutonosibligida qurilgan. Ufor usuli qo'shiqqa jonliroq sur'atni tashkil etadi.

Sust xotin

"Sust xotin" qadimiylar marosim sifatida turli joylarda turlicha shalkllarda o'tkazilgan va turlicha nomlangan. Ba'zi joylarda "Sust xotin" "Talabi boron" ("Yomg'ir talab"), "Suz xotin", "Suv xotin", "Chala xotin", "Chayla qozoq" deb nomlangan. Osmondan yomg'ir tilaydigan bu "Sust xotin" tasvirini ya'na qo'g'irchoqni ko'targan ayollar xonadonlarga kirib "Sust xotin" qo'shig'ini aytishgan. Xonadon egalari marosim ishtirokchilarini xursandchilik bilan qarshi olishgan va hayr-ehsonlar berishgan. "Sust xotin" qo'shig'idagi naqoratning takrorlanishi satrlarini yodlash va baralla aytish uchun qulaydir. Qo'shiq marosim paytida kuylanar ekan, undagi mazmun va ta'sirchanlik bevosita musiqiy tili va ritmik uslubiga bog'liq bo'ladi.

Lola sayli

Lolajon bahorda tog'ning shusniga yanada go'zallik baxsh etuvchi lola o'simligidir. Xalqimiz tomonidan hozirga qadar kuylanib kelinayotgan qo'shiq "lolajon" deb ataladi. Ushbu qo'shiq o'zining yorqin kuy ohanglari bilan shodlik xursandchilik tuyg'ularini ifoda etgan.

Hey lola

Yakkaxon va guruh de tomonidan kuylanadigan bu qo'shiq sho'x, quvnoq kutarinkilik kayfiyatini baxsh etadi. Chunki lola ya'ni gulni qizbolaga o'xshatish chiroyli qo'shiq ohanglarida o'z aksini topa olgan.

Halinchak

Halinchak qo'shig'i faqat qizlar tamonidan "Navro'z" paytlarida ijro etilgan. Qo'shiq lirik ohangda, sekin, mayin ovozda, ravon, ritmik o'lchovida aytildi. Qo'shiqning ritmi halinchakni tebranishini eslatadi, sinkopa o'lchamli xarakat. Ushbu asar o'zbek musiqasiga xos bo'lgan qo'shiq janrida ijod etilgan, ammo bu namuna ko'proq Surxon vohasiga hosdir.

Turna keldi

"Navro'z"ning kirib kelishi bilan O'zbekistonimiz janubida turnalarning qator-qator bo'lib uchib kelayotganligini tez-tez kuzatish mumkin. Qadimdan xalqimiz hattoki turnalarning uchish holatiga qarab yilning qanday kelishini aya olishgan va turnalar haqida qo'shiqlar to'qishib xirgoyi qilishgan. Turnalar pastlab uchsa o'sha yil risqli, unumli, barakali, mo'l ko'lchilik bo'lishini aytishgan. Agar turnalar baland uchishsa qurg'oqchilik, mo'l-ko'lmasligi mumkin.

Mana shunday tabiat qonun qoidalariga e'tibor bergan xalqimiz turnalarning uchib kelishini intazorlik bilan kutishgan, uning go'zalligini yil darakchisi sifatida e'zozlab qo'shiqlar to'qishgan. Bu qo'shiq "Turna keldi" deb nomlanadi. Qo'shiq naqarotdan boshlanib hamma kuylaydi, keyingi bandlar esa yakka ijroda shoshilmasdan ijro etiladi.

Qiz bola

Navro'z kirib kelishi bilan tabiat uyg'onib o'z jamolini atrofga namoyon eta boshlaydi. Atrof yashil libosga burkanib go'zallik manzarasini o'zida kashf etadi. Shunday paytlarda tabiatdan zavq olgan qizlarimiz qoshlariga o'sma, ko'zlariga surma qo'yib navro'zni kirib kelishini xursandchilik bilan kutib olishadi, hamda o'z dugonalar bilan bog'larda gul terishga borishadi. Mana shunday baxoriy kayfiyat baxsh etuvchi qo'shiqlar yigitlarimiz tomonidan ko'tarinkilik kayfiyatida sho'x va shodon kuylanadi.

Sumalak

Sumalak "Navro'z" bayramiga tayyorlanadigan taom haqidagi qo'shiq bo'lib, bandi yakkaaxon tomonidan sumalak tayyor bo'lganligini bildiruvchi so'zlar bilan boshlanadi. Qo'shiqning asosiy ohangi tertsiya oralig'idagi ikki taktli misrani qamrab

oladi. Qo'shiq naqorati guruh tomonidan "vaq vaqa sumalak" so'zlari bilan aytildi. Qo'shiqning harakati sho'x, jarangdor, o'ynoqi tarzida ifodalanadi.

Bog'daga uchrashuv

Qo'shiq cholg'u jo'rlijisiz ijro etilib teskari chapak hamda barmoqlarning bir-biriga ishqalanib qirsillashi natijasida hosil bo'ladigan tovushlar yordamida usul beriladi. Bu esa ijro etuvchilardan katta mahoratni talab etadi. Qo'shiq mazmunida yor visolinining go'zalligi sekin, mayin, mungli ohangda kuylanadi.

Ohay-ohay

"Navro'z" sayillarida ijro etilib, bayramga o'ziga xos ko'tarinkilik kayfiyati baxsh etadi. Qo'shiq yorga nisbatan hazil-mutoyiba so'zlaridan iborat bo'lib, sho'x, o'ynoqi ohangda ijro etiladi. Qo'shiq faqat ayollar tomonidan kuylanib, uning har bir bandi bir xil ohangda aytildi. Ushbu qo'shiq Sho'rchi tumaniga xos bo'lib boshqa joylarda qayd etilmagan.

Oh-voh

"Navro'z" sayillarida faqat erkaklar tomonidan ijro etilgan qo'shiqlardan biri hisoblanadi. Qo'shiq sho'x, yengil lapar uslubida aytildi. Qo'shiq mazmuni sevgi muhabbat, yorga, sayl ishtirokchilariga nisbatan hazil so'zlardan iborat bo'lsada, asosiy maqsad sayl ishtirokchilarini o'yinga, raqsga chorlash bo'lган. Qo'shiq o'lchovi 6/8 bo'lib, kuyi kalta diapazonda yengil va jozibali xarakterda ijro etiladi.

Bedana

Bahor kelishi bilan atrof ko'm-ko'k libosga o'ranib oladi. Bir tomonda maysalar qiyg'os ochilsa, bir tomonda lola qizg'aldoqlar falakka qarab bo'y cho'zib shamol ta'sirida go'yoki raqsga tushayotganday tebranib turadi. Tabiatning husnkor faslida xalqimiz qadimdan sayllarga chiqishib xursandchilik qilib, qo'shiqlar kuylashgan. Maysazorlarda bir joydan boshqa joyga qo'nib "pit-piliq" deb sehrli sayrashlari bilan odamni o'z og'ushiga tortadigan bedana qushi haqida ham qo'shiqlar to'qishgan. Qo'shiqda bedananing chiroyli sayrashi, qizlarning ba'zi qirralari hazil yumor tariqasida yengil, sho'x o'yinbop xarakterda kuylanadi.

Hamal

Surxon vohasida bahor fasli bilan bog'liq marosim qo'shiqlaridan yana biri hamal qo'shig'idir. Unda bahorning kirib kelishi bilan kutarinkilik, xursandchilik kayfiyati hamda uning go'zal qizga mingzatilishi sho'x, shodon, jozibali ohanglarda kuylanadi. Shuni ta'kidlash joizki, naqorat va band kuylari hamisha asosiy ifodaga (ladning asosiy bosqich tovush "sol"ga) qaytadi. Lekin har bir yangi bandda yanada rivoj topib kuy dialogini yanada kengaytirib boradi. Qo'shiq kuyi ikki ohang-jumladan tuzilgan va har biri ma'lum darajada kuyning harakteri va ruhiy kayfiyatini ochib beradi.

Surxon vohasida bahor fasli bilan bog'liq marosim qo'shiqlaridan yana biri hamal qo'shig'idir. Unda bahorning kirib kelishi bilan kutarinkilik, xursandchilik kayfiyati hamda uning go'zal qizga mingzatilishi sho'x, shodon, jozibali ohanglarda kuylanadi. Shuni ta'kidlash joizki, naqorat va band kuylari hamisha asosiy ifodaga (ladning asosiy bosqich tovush "sol"ga) qaytadi. Lekin har bir yangi bandda yanada rivoj topib kuy dialogini yanada kengaytirib boradi. Qo'shiq kuyi ikki ohang-jumladan tuzilgan va har biri ma'lum darajada kuyning harakteri va ruhiy kayfiyatini ochib beradi.

MAVSUMIY MEHNAT MAROSIM QO'SHIQLARI

Qo'sh haydash qo'shig'i

Bu qo'shiq ko'klam davrida dala ishlarini bajarishda muhim o'rin tutgan xo'kizning mehnati qadrlanib kuylanadi. Qo'shiq o'lchovi ravon bo'lib, erkin ravishda yurish xarakatiga uyg'un, ish jarayoni bilan bog'liq holda ijro etiladi. Qo'shiq jonliroq tezlikda rechitativ holatda bandlar yakka xonanda tomonidan ijro etilsa, "Chuh-ho-chuh" so'zlariga esa qolganlar jo'r bo'lishgan. Qo'shiqning musiqa cholg'ularisiz ijro etilishi xonandalarga o'ta qiyinchilik to'g'dirsada, lekin e'tibor va aniqlikni talab etadi.

Maydayo- mayda

Tog'li qishloqlarda dehqonlar yig'ilgan hosilni daladan hirmonga to'plashib, uni quritishib, so'ngra qo'sh xo'qizlar yordamida galagov qilib yanchishgan Natijada arpa, bug'doylar o'z poyasidan ajralib don holatiga keladi. O'shanday paytlarda galagov qilayotgan dehqonlar "Mayda qo'shig'ini kuylashgan" Qo'shiq quvnoq ohangda ijro etiladi. Qo'shiqda dehqon ho'kizga buyruq ma'nosidagi so'zlarini aytib uni erkalatib ijro etgan. Qo'shiqda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanining aholisiga xos sheva so'zlarini ham uchraydi, ya'ni "seni enang buyurdi", "Suvdana burning jiyirdi".

O'roqchilar

"O'roqchilar" qo'shig'i shaklan ikki qismdan iborat bo'lib, naqorat guruh tomonidan va bandlari yakkaxon bo'lib navbatma-navbat kuylangan. Qo'shiqning o'lchovi 6/8, oxirigacha u o'zgarmaydi. Qo'shiqning o'lchov-ritmikasi xalq so'zlarini bilan hamohang, ohang tovushlari so'z bo'g'irlari bilan bog'liq. Doiraning sho'x usuli qo'shiqqa yanada sho'xchanlik baxsh etadi. Mehnat ko'shiqlaridan biri sanalgan mazkur qo'shiq mehnatda ahillikka, hamkorlikka chaqiradi.

Yozi

Bug'doy o'rimi paytida tarafma-taraf bo'lib aytiladigan bu qo'shiq o'roqchilar ko'nglihi ko'tarib ularga tetiklik baxsh etib, charchoqlarini unutishga yordam bergan. Qo'shiq so'zlarini cho'zib kuylanib bayt oxirida esa hamma "oblo" so'ziga jo'r bo'lishgan. Qo'shiq kuyi jozibador, bir ohangda dialog shaklida bo'lib, jo'rsiz aytilgan. Shuning uchun kuyllovchilardan katta mahorat talab etilgan.

Zuhra xola va dehqonlar qo'shig'i

Qo'shiqda dehqonlarning qorinlari ochganligidan shikoyatlariga javob (*Zuhra xola yuguraver, dehqonlar o'ldi ochdan*) sifatida Zuhra opaning yerni chuqurroq haydash, donni sifatliroq sepish lozimligini uqtirish (*Dehqon bobo yer haydar, haydasa ham zo'r haydar*), mehnatda sabr-toqat va sifat hosilning taqdirini belgilashi kuylanadi. Qo'shiqning zamirida asosan mehnat kuylanib, dehqonning ishi sharaflanadi. Bu qo'shiq lapar janriga yaqin bo'lib, asosan yakkaxon (*Zuhra xola*), naqorat esa ko'pchilik (dehqonlar) tomonidan – "savol javob tarzida" ijro etiladi.

Havor-havor

Yig‘im - terim mavsumi tugagach hosilni tog‘ sharoitida yig‘ishtirib bo‘lganda ularni eshak va ho‘kizlar yordamida yashash joylariga keltirishgan. Qo‘sinq vazmin, bir maromda kuylanadi. Tovushlar bir-biri bilan bog‘langan holda cho‘zib xonish uslubida aytildi. Ohangning pastki harakati (sekunda oralig‘idagi yo‘nalish) va bir uslubdagi ravon usuli jonivorning yurishiga mos tarzida ifoda etilgan. Bu qo‘sinq hayvonlarga bag‘ishlanib aytildi. Qo‘sinqda Boysun tumaninig aholisiga xos sheva so‘zleri ham uchraydi «jebala», «xila».

Do‘rsi- do‘rsi

Uzum terib bo‘lingach undan shinni tayyorlanadi. Bu qo‘sinq shinni tayyorlash jarayonida aytildigan qo‘sinq bo‘lib, sho‘x, raqsbor tezlikda ijro etiladi. Ayniqsa, doiraning sho‘xchan ufor usuli qo‘sinqqa yanada ko‘tarinki kayfiyat baxsh etadi. Qo‘sinqning ohangi “Chamanda gul” ohangiga yaqinligi seziladi.

Shohiy naqshband

Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi tog‘li Ushor qishlog‘ida g‘alla bug‘doy va bog‘ hosillarini yig‘ishtirib bo‘lgandan keyin dehqonlar o‘zlariga yaqin kishilar bilan tog‘ sayliga borishib olib borgan qo‘y- echkilarini so‘yib tandirga osadilar. Dam olishib muqaddas joylarni ziyyarat qilib qaytayotgan paytlarida “Shohiy naqshband” qo‘sinqlarini aytadilar. Bir kishi qo‘sinqni boshlaydi qolganlar esa “Shohiy naqshband yo pir rahmat, yo do‘st” so‘zlariga jo‘r bo‘lishadi. Qo‘sinq ijrochilar tomonidan shoshilmay cho‘zibroq ijro etiladi.

YILNOMA-TAQVIM QO‘SHIQLARI

Rabbiman va Ramazon

Ro‘za oyining uchinchi kunida xonadonma-xonadon yurib, aytildigan qo‘sinq Surxondaryoda “Ramazon” “Rabbiman” deb ataladi. Shunday qo‘sinqlarni aytvchilarini ramazonchilar yoki rabbimanchilar deyishadi. Rabbiman qo‘shig‘ining asosiya mazmuni xonadonga yaxshilik, rizq-ro‘z, xonadon sohiblariga esa yaxshi niyatlar tilash va ro‘za oyining muqaddasligi, fayzu-barakot keltiruvchi oy ekanligi kuylanadi. Rabbimanchilar erta sahardan yoki kechga yaqin uch kishi uyma-uy yurib shu qo‘sinqni aytishadi. Bir kishi qo‘sinq bandlarini aytsa, qolgan ikki kishi rabbiman naqoratiga jo‘r bo‘lishadi. Qo‘sinq oxirigacha ijro etilib bo‘lgach, xonadon egalari imkon darajada rabbimanchilarga topganini ko‘ngildan chiqarib berishadi. Bu qo‘sinqni havas bilan g‘urur va quvонch bilan yoshu-qarilar ijro etishadi.

TURLI MAVZUDAGI XALQ QO‘SHIQLARI

Kovushim

Qo‘sinq sho‘x, quvnoq xarakterda bo‘lib, naqorat ko‘pchilik tomonidan, bandlar esa yakkaxon tomonidan ijro etiladi. Xazilomuz aytildigan bu qo‘sinq o‘z davrida oyoq kiyimi hisoblangan kovush xaqidadir. Bunda kovush yordamida bog‘larni, tog‘larni kezganligi xamda uning xo‘kiz terisidan tayloranishi, issiq va sovuqdan yirtilishi xazilomuz tarzda kuylanadi.

Tul bobo

Qo'shiq asosini bobo, o'g'il, momo va qiz ijrolari tashkil etadi. Bundagi voqealarda o'g'ilning otasiga kampir topish g'oyasi ilgari surilib kuylanadi. Avval qiz, keyin kampirni otasiga xotinlikka taklifi o'g'il tomonidan juda yumorga boy ko'tarinkilik kayfiyatida ijro etiladi. Voqealar rivojiga qo'shiqning ijro rivoji ham uyg'unlashib tinglovchi kayfiyatini ko'tarib o'ziga rom etadi. Ayniqsa otasiga ma'qul bo'lgan kamirni topilish jarayoni qo'shiqda so'z o'yinlaridan nihoyatda mohirona foydalaniib qo'llanilganligidan dalolat beradi.

Kel ey shonim

Qo'shiq sho'x, raqsbop xarakterda ijro etiladi. Qo'shiqning bandlari yakkaxon tomonidan, naqorat esa ko'pchilik tomonidan ijro etiladi. Qo'shiq asosi yorga atalgan so'zlardan iborat bo'lib, yorni kelishi iltijo tariqasida kuylanadi.

Boy bola

Sho'x va raqsbop ijro etiladigan bu qo'shiq Boysun tog'inining qal'asini, To'dasini, bulog'i-yu chorborg'ini uning go'zalligini hamda boy bola timsolida har biri shu yurt, Vatan farzandi ekanligi tarannum etilib kuylangan.

To'n tikish

Ma'lumki, har bir viloyatda o'ziga xos, mos hunarmandchilik sohalari keng rivojlangan. Ilgarilari qizlarimizning o'z yoriga atab to'n tikishi odat bo'lgan. Bu qo'shiqning mayin, ravon ijro etilish ohangi kishini o'ziga rom etadi. Ayniqsa banddag'i har bir misraning oxirgi jumllalari cho'zilib nolalar yordamida kuylanishi qo'shiqqa yanada zeb baxshida etadi.

Kim oladi-yo shuginani-yo?

Mazkur qo'shiq cholg'u jo'rligisiz o'rtacha tezlikda ijro etiladi. Ishtirokchilar aylana xolatida turib qarsak chalib "Kim oladi-yo, shuginani-yo?" so'zlarini aytib davra o'rtasiga talabgorni taklif etishadi. Talabgor davra o'rtasiga kirib "Men olamano shuginani-yo" so'zlarini aytib o'rtada turgan ro'molni enkayib, qo'lni ishlatmasdan tishlab olish shartini bajarish lozim bo'ladi. Tabiiyki buni uddasidan faqat chaqqon, botir, epchillargina chiqishi mumkin.

Iroqi do'ppi

Naqorati ko'pchilik tomonidan, bandlari esa yakkaxon tomonidan ijro etiladigan bu qo'shiq sho'x, quvnoq va raqsbop xarakterda ijro etiladi. Qo'shiq asosini qizlarga bag'ishlab aytildigan sevgi, vafo, muxabbat tuyg'ularini ifodalovchi so'zlar tashkil etadi.

Qaynog'a va yanganing aytishuv qo'shig'i

Bu qo'shiq sho'x xarkterda ijro etiladi. Yanganing un elashidan toki non pishirish jarayoni qaynog'a tomonidan xazilomuz tarzda kuylanadi. Non pishirib bo'lgandan keyin esa yanganing qaynog'osiga "Nondan oling, qaynog'a suvga soling qaynog'a" so'zları sho'x erkash ohanglarda kuylanadi.

Vo velay (Voy o'lay)

Ayriliqda qolgan sevikli yor tomonidan cho'zib kuylanadigan g'amgin qo'shiq bo'lib, yakkaxon tomonidan ijro etiladi. Qo'shiq so'zlarida dushmanga nisbatan nafrat tuyg'ulari yaqqol ko'zga tashlanadi. Qo'shiq diapazoni kvinta oralig'ida bo'lib, musiqa jo'rligisiz kuplet tarzida aytilib, bir ohang qayta-qayta takrorlanadi. Vohaning tog'li O'shor qishlog'iga xos bu qo'shiq boshqa joylarda qayd etilmagan.

Hay dog‘u-dog‘

Bu qo‘sinq yigitning sevgilisiga nisbatan aytildi dil dardlarini izhor etishi, yor visoliga yetishish uchun o‘rtanish, qizning kamon qoshlari, uni ko‘rganda aqlu-hushidan ayrilib lol qolishi, ishq o‘tida yonishi va sog‘inch kabi his-tuyg‘ular sho‘x ohanglar orqali kuyylanadi. Qo‘sinq o‘lchovi 6/8 bo‘lib, musiqa cholg‘ular jo‘rligida ayniqsa doirada ufor usullarining sadolanishi qo‘sinqqa yanada ko‘tarinkilik ruhiyatini bag‘ishlaydi.

Do‘rma

Qo‘sinqda yigit va qizning gulzorda sayr qilishlari, qizning go‘zalligi, yoshlik sho‘xliklari, surma tortilgan qoshu-ko‘zlarining maftunkorligi, noz qarashmalari, yigitning qizga nisbatan muhabbati lirik ohangda kuyylanadi. Qo‘sinq o‘lchovi 6/8 bo‘lib, o‘rtacha tezlikda sho‘x, o‘ynoqi tarzda ijro etiladi.

Huyollo

Surxon vohasiga xos bo‘lgan alla qo‘sinqlaridan yana bir turi bo‘lib, ular bobolarimiz tomonidan bolani yupatish, erkalash, suyish, ovutish qo‘sinq‘i sifatida alohida o‘rin tutadi. Bolani erkalash ayrim holatlarda uxlatish, orom oldirish uchun aytildigan bu qo‘sinq o‘ziga xos rechitativ ohangda takrorlanib, satrlar oxirida “yu-huy” so‘zleri takrorlanadi. Qo‘sinq ohangi bir holat va uslubda aytildi, uning diapazoni kalta(tertsiya oralig‘ida) ritm uslubi ravon, shakli ham tekis davriya tuzilishida. Bu qo‘sinqning nafaqat so‘zleri, balki ohangida ham vohaga xoslik sezilib turadi, ushbu aytimlar o‘zining liro-epik xarakteri bilan ajralib turadi.

Voh-voh to‘ram

Qo‘sinqda yor(to‘ra)ning hazilomuz iltijosi, erkaligi, unga zeb berib turuvchi kokili, sochlariqa taqilgan jamalagi, uning go‘zalligi va nozikligi kuyylanadi. Qo‘sinq musiqa cholg‘ular jo‘rligida yengil, sho‘x, o‘ynoqi ohanglarda ijro etiladi. Qo‘sinq ijrosi davomida “bo‘lama”(bo‘larmish) kabi so‘zlarning bir necha bor takrorlanishida Boysunliklarga xos sheva yaqqol sezilib turadi.

Alla

Ona qalbining to‘ridan orzu-armonlarining dard hasratlarini va beshikda yotgan bolaning qoshu-ko‘zlarini, kelgusida o‘sib ulg‘ayib kamol topishini, visol oqshommlari nasib etishini ifodalovchi so‘zlar ma’lum ohanglar bilan, nolalar bilan jilolanib hamohang bo‘lib alla qo‘sinq‘iga aylanadi. Onalar allasining ohangi va ijrosi hech qachon bir-biriga o‘xshamaydi. Beshikni bir maromda sekin-asta tebratilishi qo‘sinqqa mayinlik baxsh etib bolani tinch uxlashiga va orom olishiga yordam beradi. Ma’lumki, qo‘sinq cholg‘ularsiz ijro etiladi, shuning uchun kuylovchidan katta mahorat talab etiladi. Bu alla qo‘sinq‘ida dahshatli urush qanchalar onalarning tinchini buzib, kulfatlar keltirgani va urushga ketgan askarlarning sevikli yorlari tomonidan kuylangan ayriliq, sog‘inch, o‘kinch kabi g‘amgin nolalari o‘rin olgan.

Yangajon

Qaynog‘a(qayni) tomonidan yanganing qoshlari, ko‘zleri, yuzlarini go‘zalligini va kiygan liboslari yarashganligini hazil-mutoyiba tariqasida ta’riflab aytildigan qo‘sinq bo‘lib, xushchaqchaq, yengil, sho‘x, raqsbop ohanglar bilan aytildi. Qo‘sinq bandlari yakkaxon tomonidan ijro etilib, naqoratga esa hamma jo‘r bo‘ladi.

TO'Y MAROSIM QO'SHIQLARI

Lay-la-lo

O'rtacha

The musical score consists of eight staves of music in G major, common time, with a key signature of one sharp. The vocal line is "Lay-la-lo". The lyrics are provided in English and in the Uzbek language below each staff.

English Lyrics:

- At - la - sim - ning o - qi bor lay - la - la - lo, lay - la - lo,
- Tu - mor qil - lib to - qib o - ley lay - la - la - lo, lay - la - lo,
- Yosh - li - ging - da o'y - nab qol, lay - la - la - lo, lay - la - lo,
- O'y - na - ma - gan kim - lar bo - rey lay - la - la - lo, lay - la - lo,
- Lay - la - la - lo, lay - la - lo, lay - la - la - lo, lay - la - lo.
- Lay - la - la - lo, lay - la - lo, lay - la - la - lo, lay - la - lo.
- Lay - la - la - lo, lay - la - lo, lay - la - la - lo, lay - la - lo.
- Lay - la - la - lo, lay - la - lo, lay - la - la - lo, lay - la - lo.

Uzbek Lyrics:

- Atlasimning oqi bor layla-la-lo, lay-la-lo,
- Tumor qilib taqib ol layla-la-lo, lay-la-lo,
- Yoshligingda o'ynab qol layla-la-lo, lay-la-lo,
- O'ynolmaganlar kim borey layla-la-lo, lay-la-lo.
- Chirog'im bor o'ninchilayla-la-lo, lay-la-lo,
- Piligi o'n birinchi layla-la-lo, lay-la-lo,
- Yigitlarning ichida layla-la-lo, lay-la-lo,
- Bizning yorga tengi yo'q layla-la-lo, lay-la-lo.
- Sandiq ustida bo'xcha layla-la-lo, lay-la-lo,
- Yigitlar guli guncha layla-la-lo, lay-la-lo,
- Qurg'ur dushman qo'ymadilayla-la-lo, lay-la-lo,
- Gul bo'lib ochilguncha layla-la-lo, lay-la-lo.
- Hovlingizda gul ko'rdim layla-la-lo, lay-la-lo,
- Shoxida bulbul ko'rdim layla-la-lo, lay-la-lo,
- Askar ketgan og'amni-ey layla-la-lo, lay-la-lo,
- Uxlab tushimda ko'rdim layla-la-lo, lay-la-lo.

Qora kamar bellarda layla-la-lo, lay-la-lo,
O'rdak yurar ko'llarda layla-la-lo, lay-la-lo,
Birga o'sgan og'alar layla-la-lo, lay-la-lo,
Ko'rinxaydi ko'zlarga layla-la-lo, lay-la-lo.

V Osmondagi uch o'rdak layla-la-lo, lay-la-lo,
Uchchalasi ham birdek layla-la-lo, lay-la-lo,
O'shorimning qizlari-ey layla-la-lo, lay-la-lo,
Ochilgan qizil guldek layla-la-lo, lay-la-lo.

Devor ustida g'o'ra layla-la-lo, lay-la-lo,
Qiz bo'lsang ro'mol o'ra layla-la-lo, lay-la-lo,
Hali yoring yosh ekan layla-la-lo, lay-la-lo,
Borib yoringdan so'ra layla-la-lo, lay-la-lo.

Devor ustida o'zim layla-la-lo, lay-la-lo,
Yig'laydi qora ko'zim layla-la-lo, lay-la-lo,
Og'ajonim o'ziga layla-la-lo, lay-la-lo,
O'tmaydi shirin so'zim layla-la-lo, lay-la-lo.

Dutor chertib turuvdim layla-la-lo, lay-la-lo,
Tori uzilib ketdi-ey layla-la-lo, lay-la-lo,
Og'am yodimga tushib layla-la-lo, lay-la-lo,
Ko'nglim ezilib ketdi layla-la-lo, lay-la-lo.

Ro'molingiz kir ekan layla-la-lo, lay-la-lo,
Yuvganingiz yo'q ekan layla-la-lo, lay-la-lo,
Sizga oshiq bo'lvdim layla-la-lo, lay-la-lo,
Bilganingiz yo'q ekan layla-la-lo, lay-la-lo.

Osmondagi bulutlar layla-la-lo, lay-la-lo,
Naroq-naroq yuringlar layla-la-lo, lay-la-lo,
Men og'amni ko'rganda layla-la-lo, lay-la-lo,
So'rog'ida bo'linglar layla-la-lo, lay-la-lo.

Ariq labini o'ydim layla-la-lo, lay-la-lo,
Chakkamga gullar taqdim layla-la-lo, lay-la-lo,
Og'ajonim kelsin deb layla-la-lo, lay-la-lo,
O'tirib xatlar yozdim layla-la-lo, lay-la-lo.

Toqqa chiqdim taqqillab layla-la-lo, lay-la-lo,
Toqi sirg'am yaltillab layla-la-lo, lay-la-lo,
Bizni ko'rgan dushmandi-ey layla-la-lo, lay-la-lo,
Joni chiqsin hiqillab layla-la-lo, lay-la-lo.

TO'Y MAF SHIOLARI

Paxtarō gir

Sho'xroq

Pax - ta - ro gir, pax - ta - ro, ba - noz gir pax - ta - ro.

Ba g'oz - gir pax - ta - ro, pax - ta - ro gir pax - ta - ro.

Gus fan - di - mo kush - ta - ro, meh-mon bi - yod shish - ta - ro.

Bi - rin - ji mo shush - ta - ro, pax - ta - ro gir pax - ta - ro,

ba nag' - ma gir pax - ta - ro, pax - ta - ro gir pax - ta - ro.

Paxtarō gir, paxtarō,
Ba noz gir paxtarō.
Ba g'oz gir paxtarō,
Paxtarō gir, paxtarō.
Gusfandi mo kushtaro,
Mehmon biyod shishtaro.
Birinji mo shushtaro,
Ba nag'ma gir paxtarō,
Paxtarō gir, paxtarō.

Dashnobod naqsh aytishuv qo'shig'i

Tezroq

1 chi tomondagilar



Hamma:

2 chi tomendagilar



Chak-mo-nim - ni yo'-qot - dim. Ux-lab qol - gan yo - rim - ni,

Hamma:

kish-mish be - rib uy - g'ot - dim. Bas, bas, bas, bas, bas.

1-tomondagilar:

Chumchug'im chirillaydi,
Qanoti pirillaydi.
Yorimga boray desam,
Ko'ppagi g'irillaydi.

2-tomondagilar

Oshiqman oromim yo'q,
Kechaga qarorim yo'q.
Boshimga mushkul kelsa,
Shu ishdan xabarim yo'q.

Hamma: Bas, bas, bas, bas.

Hamma: Bas, bas, bas, bas.

2-tomondagilar:

Uzun soyga o'q otdim,
Chakmonimni yo'qotdim.
Uxlab qolgan yorimni.
Kishmish berib uyg'otdim.

1-tomondagilar:

Yangi oyning oydini,
Tegirmonning garduni.
Hech bandaga solmasin,
Shu bolaning dardini.

Hamma: Bas, bas, bas, bas.

Hamma: Bas, bas, bas, bas.

1-tomondagilar:

Netarim sani bilan,
Bo'ljadi mani bilan.
San yoshgina o'g'lonsan,
Sargardon sani bilan.

2-tomondagilar:

Yugurdim yetolmadim,
Qo'l soldim, tutolmadim.
Kesilsin mening tilim,
Arzimni aytolmadim.

Hamma: Bas, bas, bas, bas.

Hamma: Bas, bas, bas, bas.

Boysun yor-yori

Ortacha

Qat - qat - gi - na - qat - la - ma, qat - la - nib - di yor, yor.

Qiz - ni o - lib yan - ga - lar, ot - la - nib - di yor, yor.

Os - mon - da - gi yul - duz - ni sak - kiz deng - lar yor, yor.

Sak - kiz qiz - ning sar - do - ri ke - lin deng - lar yor, yor.

Qat-qatgina qatlama,
Qatlanibdi yor-yor.
Qizni olib yangalar,
Otlanibdi yor-yor.

Ocmondagi yulduzni,
Sakkiz denglar yor-yor.
Sakkiz qizning sardori,
Kelin denglar yor-yor.

Aravaning tagiga,
Sepdim kepak yor-yor.
Kelin oyning seplari,
Sakkiz ipak yor-yor.

Nima kiysang yarashadi,
Bo'yginangga yor-yor.
Yor-yor aytay deb keldimo,
To'yginangga yor-yor.

Ola qopdan otining,
Xurjini bor yor-yor.
Kuyovto'ra bilmagan,
Sirlarim bor yor-yor.

Men otimni qo'shmayman,
Yomon otga yor-yor.
Qanday javob beramano,
Qiyomatga yor-yor.

Men kuyovga tiladim,
Boychibor ot yor-yor.
Minsa quvnab yayrasin,
Ul chipor ot yor-yor.

Shoshilmay

Ayla Hay yor-yor

Hay yor - yor, yo - ring - man, kel - gin, yor, o'y - nay - lik.

Men se - ni sev - gan yo - ring - man, kel - gin, yor, o'y - nay - lik.

O'y - na, o'y - na, men ko' - ray, hay yor - yor, o'y - nay - lik

Bo - shing - ga gal - lar o' - ray, kel - gin, yor, o'y - nay - lik.

Naqarat:

Hay yor-yor, yoringman,
Kelgin, yor, o'ynaylik.
Men sening sevgan yoringman,
Kelgin, yor, o'ynaylik.

O'yna, o'yna, men ko'ray,
Hay yor-yor, o'ynaylik.
Boshingga gullar o'ray,
Kelgin, yor, o'ynaylik.
Senga kelgan baloga,
Hay yor-yor, o'ynaylik.
O'zim ko'ndalang bo'lay,
Kelgin, yor, o'ynaylik.

Naqarat takrorlanadi.

Eshik oldi mohpoya,
Hay yor-yor, o'ynaylik.
Bargi boshimga soya,
Kelgin, yor, o'ynaylik.
Imlaganim bilmaysan,
Hay yor-yor, o'ynaylik.
Qichqirganim oshkora,
Kelgin, yor, o'ynaylik.

Naqarat takrorlanadi.
Ariq bo'yi terakzor,
Hay yor-yor, o'ynaylik.
Qiz bola ham ginador,
Kelgin, yor, o'ynaylik.

Naqarat takrorlanadi.
Devel astidi o'yo
Devona bo'sin alani,
Boshingga gal - lar o'ray
Isbinginda o'yo
Qizlar o'moni yoxsiz
Yaqu, yaqu, yaqu
Tog'lar bosha qurma
Kiyik shoxi berana
Boy qizni berana,
Boyini xudo urana?
Yaqu, yaqu, yaqu ya

Yor-yor, yorone

Tezroq

Yor - yor, yo - ro - ne, yor - yor, yo - ro - ne.

Suv ke - la - di mo' - ri - dan, yor - yor, yo - ro - ne,

Mo' - ri - dan ham na - ri - dan, yor - yor, yo - ro - ne.

A - ka - gi - nang ay - lan - sin, yor - yor, yo - ro - ne,

Qa - da - ko - ki - ling - ni to - ri - dan, yor - yor, yo - ro - ne.

O' - ho', ja - qa - la, o' - ho' ja - qa - la.

**Suv keladi mo'ridan, yor-yor, yorone,
Mo'ridan ham naridan, yor-yor, yorone.
Akaginang aylansin, yor-yor, yorone,
Kokilingning toridan, yor-yor, yorone.**

**Tom ustida beda bor, yor-yor, yorone,
Maydasini elab ol, yor-yor, yorone.
Shuncha barno ichidan, yor-yor, yorone,
Yaxshisini tanlab ol, yor-yor, yorone.**

**Surxon ko'r kidir Boysun, yor-yor, yorone,
Qizlar ro'molin yoysin, yor-yor, yorone.
Xalqimizning baxtiga, yor-yor, yorone,
Yurtimiz omon bo'lsin, yor-yor, yorone.**

Aylansin yor, aylansin

Quvnoq

The musical score consists of eight staves of music in 2/4 time, featuring a treble clef and a key signature of one flat. The vocal line is accompanied by a piano or harpsichord part. The lyrics are provided in English and Russian below each staff.

English Lyrics:

- Staff 1: Ay - lan - sin yor, ay - lan - sin, qosh - la - ri qo - ra ay - lan - sin.
- Staff 2: Shaf - to - li - zor i - chi - da, bo - dom qo - voq ay - lan - sin.
- Staff 3: Ya - qu, ya - qu, ya - qu - ya. De - vol us - ti - da de - vol.
- Staff 4: de - vo - na bo'l - sin a - kang. Bo - shing - da bal - xi ro' - mol,
- Staff 5: ish - qing - da o'l - sin a - kang. Bo - shing - da bal - xi ro' - mol,
- Staff 6: ish - qing - da o'l - sin a - kang. Ya - qu, ya - qu, ya - qu - ya,
- Staff 7: ya - qu, ya - qu, ya - qu - ya.
- Staff 8: Tog'lar boshi nurama, Kiyik shoxi burama, Boy qizini bermasa, Boyni xudo urama? Yaqu, yaqu, yaqu-ya.

Russian Translations:

- Staff 1: Айлансиң юр, айлансиң, қошларың қора айлансиң.
- Staff 2: Шафтолизор ичидә, бодом қовоқ айлансиң.
- Staff 3: Яку, яку, яку - я. Деволустидә девол.
- Staff 4: девона бөлсін ақанғ. Бошиңда балхы ро'моль,
- Staff 5: исхәңдә олсін ақанғ. Бошиңда балхы ро'моль,
- Staff 6: исхәңдә олсін ақанғ. Яку, яку, яку - я,
- Staff 7: яку, яку, яку - я.
- Staff 8: Тог'лар боси нұрама, Кийик шохи бурама, Бой қизини бермаса, Бойни худо урама? Яку, яку, яку-я.

Hayyore, hay do'st

O'rtacha

A - riq bo' - yi - da yal - piz - ey. hay yo - rey. hay do'st,
 hay do'st; do'st, do'st. Yal - piz - ning bar - gi yol - giz - ey
 hay yo - rey hay do'st, hay do'st, do'st, do'st,
 O - tang bo - zor ket - gan - da - ey hay yo - rey, hay do'st
 hay do'st, do'st, do'st. Qan - day yo - ta - san yol - giz - ey
 hay yo - rey hay do'st, hay do'st, do'st.

Ariq bo'yida yalpizey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Yalpizning bargi yolg'iz-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Otang bozor ketganda-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Qanday yotasan yolg'iz-ey
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Nari betning kamari-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Hurullaydi shamoli-ey.
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Olti oy qo'limda turdi-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Yetti gulli ro'moli-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Bizlar bordik andizga-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Otim tayrildi muzga-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.

Tayrilmoxqa muz yaxshi-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 O'ynamoqqa siz yaxshi-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Tom ustida yotaman-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Turna kelsa otaman-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Turna bo'yli qizlarni-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Soch bog'idan tortaman-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Eshik oldi sho'ralar-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Oyog'imga o'ralar-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Bizlar ketib boramiz-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
 Yaxshi qoling jo'ralar-ey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.

Navro'z qo'shiqlari

Jarchilar qo'shig'i

O'rtacha

f

Bor, ho, kel, ho, Ha - ma - lam, ha,
yo'l qay - da? Tez - da cho - pib kel! Yo'l - ni to - pib kel!
O'y - na - ga - ni kel! Quv - na - ga - ni kel! Sa - yl - ga kel,
Ho!

Yang yilningiz muhabbat, bolaleni, boy qanday!

Bor ho,
Kel, ho,
Hamalam, ha,
Yo'l qayda?
Tezda chopib kel!
Yo'lni topib kel!
O'ynagani kel!
Quvnagani kel!
Saylga kel, ho-o-o!

Jonliroq

Navro'z

mf

Boy - che-chak chi - qib - di, bu - gun Nav - ro'z e - kan!

Ham - ma bir bi - ri - ga ji - gar so'z e - kan.

O - lam ham ba - ro - bar ke - cha kun - duz e - kan.

Boy - che-chak chi - qib - di, bu - gun Nav - ro'z e - kan!

Yan - gi yi - lni - giz mu - bo - rak bo'l - sin, hoy bo - bo!

Yan - gi yi - lin - giz mu - bo - rak bo'l - sin, hoy mo - mo!

Yan - gi yi - lim - giz mu - bo - rak bo'l - sin, hoy o - na!

Boy - che-chak chi - qib - di, bu - gun Nav - ro'z e - kan!

Hoy bog' bon bo - bo, ni - hol - ga ber - sin ba - ra - ka!

Hoy deh - qon bo - bo, da - lan - ga ber - sin ba - ra - ka!

Hoy eho' pon bo - bo, qo' - ran - ga ber - sin ba - ra - ka!



Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

Hamma bir-biriga jigarso'z ekan.

Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,

Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy bobo!

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy momo!

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy ona!

Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

Hoy bog'bon bobo, niholga bersin baraka!

Hoy dehqon bobo, dalanga bersin baraka!

Hoy cho'pon bobo, qo'rangga bersin baraka!

Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

Darda alam yo'q bo'lib

Sen qip-qizil yashningiz

Oq-ko'ngillar to'g'ish qib-yoz u'g'ino

Isagorat takroflanadi

Yur, saylga horaydi

Lolalarni keldiyallod r'ox mad, urx'ode

Oichog'aniz to'ldirib

Lola gullar teraylik

Nagorat takroflanadi

Yerding qoni - lolalashox yusid telihoflatdi

Yerding jozi - k'elajib od lug si'ot

Lola saylige kelib

Ko'ridik semi, lolajon, lokaqtolarini teropsidi

Nagorat takroflanadi

Sust xotin

Shoshilmay

f

Sust xo - tin, suz - ma xo - tin, ko' - lan - ka - si may - don xo - tin!

Yom - g'ir yog' - dir ho'l bo'l - sin, ye - ru ja - hon ko'l bo'l - sin.
May - sa - lar qu - loch yoz - sin, su - tu qa - fiq mo'l bo'l - sin.

Sust xo - tin, suz - ma xo - tin, ko' - lan - ka - si may - don xo - tin!

Naqorat:

Sust xotin, suzma xotin.
Ko'lankasi maydon xotin!

Yomg'ir yog'dir ho'l bo'lsin,
Yeru jahon ko'l bo'lsin,
Maysalar quloch yozsin,
Sutu qatiq mo'l bo'lsin.

Naqorat takrorlanadi:

Yomg'ir yog'dir, ko'k bo'lsin,
Qurg'oqchilik yo'q bo'lsin,
Arpa, bug'doy bosh tortsin,
Kayvonilar osh tortsin!

Naqorat takrorlanadi:

Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'laylik,
Biz ham senga jo'r bo'laylik,
Ko'klamda o'ynab-kulib,
Ham sho'xu, ham zo'r bo'laylik.

Naqorat takrorlanadi:

Yomg'ir yog'di, do'l bo'ldi!
Yeru jahon ko'l bo'ldi,
Shaftolilar barg yozdi,
Dunyo to'la gul bo'ldi.

Naqorat takrorlanadi.

Lola sayli (Lolajon)

O'rtacha tez

Lo - la, lo - la, lo - la- jon, o' - sar jo - ying da - la - da.

Lo - la, lo - la, lo - la- jon, chi - da - ding - mu ja - la - ga?

Ja - la yog' - sa qo'rq - ma - gin, sel - lar oq - sa, qo'rq - ma - gin.

Chi - ro - yi - ni o - chay deb, qiz - lar taq - sa, qo'rq - ma - gin.

Naqorat:

Lola, lola, lolajon,

O'sar joying dalada.

Lola, lola, lolajon,

Chidadingmu jalaga?

Jala yog'sa, qo'rqmakin,

Sellar oqsa, qo'rqmakin.

Chiroyini ochay deb,

Qizlar taqsa, qo'rqmakin.

Naqorat takrorlanadi:

Sayilimiz sho'x bo'lsin,

Dardu alam yo'q bo'lsin,

Sen qip-qizil yashnagin,

Oq-ko'ngillar to'q bo'lsin.

Naqorat takrorlanadi:

Yur, sayilga boraylik,

Lolalarni ko'raylik.

Quchog'imiz to'ldirib,

Lola gullar teraylik.

Naqorat takrorlanadi:

Yerning qoni – lolajon,

Yerning joni – lolajon,

Lola sayliga kelib,

Ko'rdik seni, lolajon.

Naqorat takrorlanadi:

Hey lola

Quvnoq

Lo - la - cha - ga i - shim bor, hey lo - la,
 Kis - sam - da kish - mi - shim bor hey lo - la.
 Kish-mish bo'l - sa may - li - ga, hey lo - la, hey
 Qiz bo - la - da i - shum bor, hey lo - la.

Lolachaga ishim bor, hey lola,
 Kissamda kishmishim bor, hey lola.
 Kishmish bo'lsa mayliga, hey lola,
 Qiz bolada ishim bor, hey lola.

Tom ustida piyola, hey lola,
 Ichi to'la gul lola, hey lola.
 Nari turing bo'z bola, hey lola,
 Uyaladi qiz bola, hey lola.

Tom istida nelar bor, hey lola,
 O'rdak bilan g'ozlar bor, hey lola.
 O'rdak ketib g'oz qolsin, hey lola,
 Dushman o'lsin, do'st qolsin, hey lola.

Yugur, Yugur men turay, hey lola,
 Boshini gulga o'ray, hey lola.
 Senga kelgan baloga, hey lola,
 O'zim ko'ndalang bo'lay, hey lola.

Yong'i yug'di, o'l boidi
 Yeru jal'on ko'bo'ldi

Shaholtiar hary yo'lojol - inop ganiy

Dunyo to'la gil'bo'lojol - inoi ganiy

Nazorat takrori made'lojol - inoi ganiy

Halinchak

Mayın, sekin

Halinchak, ho halinchak,

Halinchakda kelinchak.

Saltligini sog'ingan.

Kelinchak, ho-kelinchak.

Halinchak, ho halinchak,

Halinchakda kelinchak.

Boyni qo'yga kuzatib.

Uchavergin halinchak.

Halinchak, ho halinchak,

Halinchakda kelinchak.

Turna keldi

O'rtacha

mf

Ar - g'am - chi, gi - lam - chi. Ar - g'am - chi, gi - lam - chi.

Tur - na bo'y - lik bo - la - jon, ko' - ka - lam - ga ti - lam - chi.

Ar - g'am - chi, gi - lam - chi. Ar - g'am - chi, gi - lam - chi.

Arg'amchi, gilamchi.

Turna bo'ylik bolajon,

Ko'kalamga tilamchi,

Arg'amchi, gilamchi.

Turna desam, turumli,

Keng dalaga qo'nimli.

Turnalar uchsa pastlab,

Risqing kelar unumli.

Arg'amchi, gilamchi.

Turna o'zi qurumli,

Usti qora, bo'yni oq.

Turna uchsa balandlab,

Yil keladi qurumsoq.

Arg'amchi, gilamchi.

Turna – tillo tarozi,

Obi – havoga qozi,

Turna uchsa yurtingga,



Salqin keladi yozi,

Arg'amchi, gilamchi.

Qiz bola

Quvnoq

Naqorat:



Naqorat:

Anjirki bog'u lola,
Har yonda gulu lola.
Navro'zki gulizorda,
Gul teradi qiz bola.

O'sma qo'yib andoz qil,
Surma qo'yib pardoz qil.
Suygan yoring kelganda,
Gapirmasdan araz qil.

Naqorat takrorlanadi...

Qizil, qizil ro'mollar qizda bo'lurmi,
Qizni suygan bandasi mirzo bo'lurmi.
Asl gulning hushnisi asta bo'lure,
Shirin, shirin so'zлare bizda bo'lure.

Naqorat takrorlanadi...

Horma aka desangchi taniganda,
Yaxshigina jonim olar yalinganda.
Inonsangchi uzugingni qo'lingdagi-ey,
Ko'rib-ko'rib berayin sog'inganda.

Naqorat takrorlanadi...

Sumalak

O'rtacha tez.

The musical score consists of ten staves of music in 2/4 time, featuring a treble clef and a key signature of four sharps. The lyrics are written below each staff in both English and Russian. The vocal part is accompanied by a piano part, indicated by a treble clef and a bass clef with a right-angle bracket between them.

Lyrics:

- Tay - yor bo'l - di do - shi - qo - zon, xoh - la - gan o -
- dam kel - sin. Su - ma - lak ye - man de - ga - no,
- kaf - ri - ni ob - ke - sin. Vaq - va - qa su - ma - lak,
- vaq - va - qa. Su - ma - la - gim pi - sha - di - ey.
- qo - zon - ga yo - pi - sha - di. Sa - ra - ton - da
- u - rush - ga - ne, Nay - ro'z - da to - pi - sha - di.
- Vaq - va - qa su - ma - lak, vaq - va - qa. Qo - zon vaq - vaq
- qay - nay - di - ey, uy e - ga - si ux - lay - di.
- Su - ma - lak ni kov - la - ga - ne, qiz - lar sa - qich.
- chay - nay - di. Vaq - va - qa su - ma - lak, vaq - va - qa.
- Vaq - va - qa su - ma - lak, vaq - va - qa.

Tayyor bo'ldi doshqozon,
Xohlagan odam kelsin.
Sumalak yeymen degano,
Kaftgirini opkesin.
Vaq-vaqa sumalak, vaq-vaqa.

Sumalagim pishadi-ey,
Qozonga yopishadi.
Saratonda urushgan-ey,
Navro'zda topishadi.
Vaq-vaqa sumalak, vaq-vaqa.

Qozon vaq-vaq qaynaydi-ey,
Uy egasi uxlaydi.
Sumalakni kavlagan-ey,
Qizlar saqich chaynaydi.
Vaq-vaqa sumalak, vaq-vaqa.

Sumalagim pishadi-ey,
Qozonga yopishadi.
Sumalakxo'r qo'shnilar-ey,
Jom olib chopishadi.
Vaq-vaqa sumalak, vaq-vaqa.

Bog'dagi uchrashuv

Mayin, sekin

The musical score consists of ten staves of music in G major, 2/4 time, featuring quarter and eighth notes. The lyrics are provided in English below each staff.

Staff 1:

Bir chi-lim ta-mo - ki deb, kir-dim qa-lan - dar bo - g'i - ga,
A - ha, hey, a - ha. Bir qi-zil gul - ni u - zib,

Staff 2:

qol-dim qi - yo - mat do - g'i - ga. A - ha, hey, a - ha.

Staff 3:

Gul - ni gul, der - mu ki - shi, gul-ning ti - ko - ni bo'l - ma - sa.

Staff 4:

A - ha, hey, a - ha. Yor - ni yor der - mu ki - shi,

Staff 5:

yor ning va - fo - si bo'l - ma - sa. A - ha, hey, a - ha.

Staff 6:

Yor - ni yor det - niu ki - shi, yor ning va - fo - si bo'l - ma - sa.

Staff 7:

A - ha, hey, a - ha. Bir ki - chik bog' i - chi - da,

Staff 8:

uch - ra - shay - lik ik - ki - miz. A - ha, hey, a - ha.

Staff 9:

To - za bit - gan nav - ni - hol - dek, chir - ma - shay - lik ik - ki - miz.

Staff 10:

A - ha, hey, a - ha. Toz - za bit - gan nav - ni - hol -

Staff 11:

dek chir - ma - shay - lik ik - ki - miz. A - ha, hey, a - ha.

Bog'iga

Bir chilim tamoki deb
Kirdim qalandar bog'iga.
Bir qizil gulni uzib,
Qoldim qiyomat dog'iga.

Gulni gul dermu kishi
Gulning tikoni bo'lmasa.
Yorni yor dermu kishi
Yorning vafosi bo'lmasa.

Bir kichik bog' ichida,
Uchrashaylik ikkimiz.
Tozza bitgan navniholdek,
Chirmashaylik ikkimiz.

Men seni yorim desam,
Ortingda yoring bor ekan.
Illi yuzing olmadek,
